

УДК 338

**«TASHABBUSLI BYUDJET»NI TASHKIL KILISHDAGI MUAMMOLAR VA UNI  
BARTARAF ETISHDAGI BUYICHA TAKLIFLAR.**

Dotsent Xodjiev Nosir Raximjanovich, magistrantlar Kurbanov Akram Xakimjanovich

Muslimova Moxira Rosuljon kizi

Namangan muhandislik qurilish institute, O'zbekiston

telefon: +998934008100; +995965566;+998938082244.

**Annotatsiya.** Namangan viloyatida «tashabbusli byudjet» tashkil kilishda muammolar, loyixa xakida umumiy fikrlar, muammolarni bartaraf etishdagi takliflar.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjet, loyiha, qaror, konstitutsiya, maktablar.

**Annotation.** Problemy organizatsii "Tashabusli byudjet" in Namanganskoy oblast, general opinion on the project, proposal and solution to the problem.

**Keywords:** initiative budget, project, resolution, constitution, schools.

2023 yilning 10 aprel` kuni Prezidentimizning "Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-sonli qarori imzolandi. Qaror tashabbusli byudjet loyihasining joriy yildagi birinchi mavsumi yakunlanishi fonida qabul qilindi.

O'zbekistonda yangilangan «Ochiq byudjet» portali ishga tushirildi. Unda davlat byudjeti va qarzi bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilib boriladi. Plaftormada «Tashabbusli byudjet» bo'limi yaratilgan. U orqali fuqarolar infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llarni qurish, maktablarni ta'mirlash va jihozlash hamda boshqa masalalar bo'yicha loyihalarni taklif etib, mahalliy byudjetning taqsimlanishida ishtiroy etishlari mumkin.

Tumanlar (shaharlar) hokimiylatlari aholini mahalla, OAV, «Ochiq byudjet» portali va boshqa manbalar orqali loyiha bo'yicha ariza topshirishning tasdiqlangan mezonlari va muddatlari hamda boshqa shartlari haqida xabardor qilishlari kerak.

Loyihalarni saralash bilan ishchi komissiya shug'ullanadi. Uning tarkibiga hokimning birinchi o'rinnbosari (komissiya raisi), qurilish masalalari bo'yicha hokim o'rinnbosari, xalq deputatlari kengashi vakili, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari — hokim o'rinnbosari, hokimiyatning moliya bo'limi boshlig'i, hokimiyatlar qoshidagi jamoatchilik kengashi va nodavlat notijorat takshilotlar vakillari kiradi.

Komissiya loyihalarni mezonlarga muvofiqligi bo'yicha tekshiradi, ularni iqtisodiy va texnik ekspertizadan o'tkazadi, shuningdek, u yoki bu loyihani tasdiqlash uchun rad javobini ariza topshiruvchiga tushuntirib beradi.

Qarorda 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib bo'limgan 1 309 ta loyiha uchun ham qo'shimcha ravishda 1,3 trln so'm mablag' ajratilishi, 2023 yil 1-mavsumda g'olib, deb topilgan 2 975 ta loyihaning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi qat'iy nazoratga olinishi belgilandi. Bunda, jihozlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish so'nggi muddati etib joriy yilning iyul` oyi, qurilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirishning so'nggi muddati etib avgust oyi ko'rsatildi. Endilikda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari doirasida byudjet tashkilotlarining rahbar xodimlari tomonidan majburiy ovoz yig'ish bo'yicha xodimlarga topshiriq berishi taqiqlanadi. Majburiy ovoz yig'ishga majburlash tegishli tashkilot xodimlarini majburiy mehnatga jalb qilish sifatida tasniflanadi. Bundan tashqari, tashabbusli byudjet jarayonida ovoz to'plash va g'oliblarni aniqlash mexanizmini tanqidiy ko'rib chiqish, jumladan, keng jamoatchilik bilan muhokama qilgan holda takliflar ishlab chiqishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasi ham tasdiqlandi. Aslida ham, yurtdoshlarimiz orasida qizg'in

muhokamalarga sabab bo'lgan, har yilidan o'zgacha shiddatli tus olgan ushbu loyiha qaysi jihatlari bilan yodimizda qoldi?

Mahallada mavjud bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ayrim murojaatlarga "rejaga kiritildi, moliyalashtirish bo'lsa bajaramiz" deyilardi. Ushbu javoblarni olgan fuqarolar mahalladagi muammolarning echimini yillab kutib turardi. Shunday holatlarning oldini olish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga byudjetga oid alohida yangi modda kiritilmoqda. Eng avvalo, davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik printsiplari asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Davlat byudjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid normalar ham kiritilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etish tartibi ham paydo bo'ldi. Ya'ni "tashabbusli byudjet" — aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirishini kuzatish amaliyoti o'rnatildi.

Odam gavjum bo'lган har erda: metro bekatlari, bozorlar va yo'llarda targ'ib qilindi. Kim tomonidan deysizmi? Odamlarning o'zi ko'ngilli tarzda ishtirok etishdi. O'zaro kurash olib borishdi. Xullas, chor-atrof "Open"chilar bilan to'lib-toshganiga hammamiz guvoh bo'ldik. Har qadamda guruh-guruh kishilar ovoz yig'ish uchun o'tgan-ketganni savolga tutishardi. Qiziq, aslida "Open byudjet" loyihasi faqat uddaburonlar uchungina tashkil qilinganmidi? Shunisi hammani o'ylantirib qo'ygani rost...

"Tashabbusli byudjet" loyihasi mazmunida yurtimiz hududlaridagi infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalari, ichki yo'llar qurish, maktablarni ta'mirlash, jihozlash hamda boshqa masalalar bo'yicha loyihamar taklif etilib, mahalliy byudjetning jami 1,7 trillion so'mlik qismini taqsimlashda ishtirok etishi belgilangan edi.

Jarayonning so'nggi bosqichi shiddatli tusga kirib, ko'cha tomoshalariga aylanib ketdi. Umuman, buni har kuni ko'cha-ko'yda yuradigan kishilar yaxshiroq tushunadi. Bir qarashda o'z manfaatini angloyotgan, harakatlanayotgan jonli jamiyat yuzaga chiqyotgandek taassurot uyg'otdi. Albatta, "Open byudjet" xalqning umum ehtiyojlarini, istaklarini ta'minlash uchun yo'naltiriladigan mablag'lar hisoblanadi. Soddaroq aytganda, u orqali xalqning siniq kosasi but bo'ladi: o'ydim-chuqur yo'li asfal't qilinib, xaroba maktablari ta'mirlanadi. Davlat esa loyihamar jaamoatchilik fikri va ovozlar soniga qarab saralaydi. Bu esa jamiyatning katta qismini uyg'oqlik va shijoatga undadi, desak bo'ladi. Ko'proq ovoz yig'ish istagida bo'lган ba'zi birovlar hatto o'z mablag'ini ham ayamadi.

Ammo shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Loyiha adolatni qay darajada ta'minlay oldi? Chunki aholisi kam sonli mahalla vakillari hatto loyihamar etmadi.

"Tashabbusli byudjet" loyihasi haqida gap ketganda fuqarolarning birlashgani, uddaburonligi haqida alohida to'xtalish mumkin. Ular mahallasi uchun o'z yonidan mablag' sarflab, sim kartalar sotib olishdi. Kimlardir telefon raqamlarining hisobini to'ldirish, salqin ichimliklar taklif qilish evaziga ovoz yig'di. Ammo ayrim hududlardagi o'qituvchilar uchun ham aniq belgilangan rejalar asosida ovoz yig'ish belgilangani qulog'imizga chalindi.

Muammo ovoz yig'ish jarayonida maktab o'qituvchilari, o'quvchilari va boshqa byudjet tashkilotlari ishchi-xodimlari majburiy-ixtiyoriy ravishda qatnashganida deb aytish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videolavhalar va turli chaqiriqlardan ovoz berish jarayonlariga guvoh bo'ldik. Ularda ovoz berish ta'lim jarayonida ham kuzatildi. Bu esa jiddiy e'tirozlarga zamin hozirladi.

Faraz qiling, siz ko'chada qaysidir hudud loyihasi uchun ovoz berib, evaziga ichimlik oldingiz. Axir, siz u joyni umuman bilmaysiz! Ko'pchilik ovoz beruvchilar sonini oshirish uchun ming turli usullar qo'llandi. Endi umuman ahvoli og'ir, axborot tezligidan orqada qolgan, rivojlanish, obod bo'lish o'ta zarur bo'lган chekka joylarning holi ne kechadi, degan savol ham turibdi. "Open byudjet"ni odamlarni haraxatlantirib, birlashtira olgan loyiha sifatida davom ettirish mumkin, faqat jarayonni yanada takomillashtirish hisobiga.

Bir qator jaamat faollari va ziyyolilari bu haqda o'z fikrlarini bildirishdi. Ko'p fikrlarda ijobiy qarash yuqori deyish mumkin. Albatta, amalda loyiha doirasida jaamoatchilik uyg'ona boshladi.

Bu xalq bizda doim shunaqa, degan takror qoliplar aksi yuzaga kelganini ko'rdik. Boshqa tarafdan, jamiyat endilikda soliq to'labgina qolmay, uni taqsimlashda ham faollashganini ko'rishimiz mumkin. Demak, bu fuqarolarimizning mas'uliyatli soliq to'lab, uning sarfi uchun ham mas'uliyat bilan yondasha boshlaganidan dalolat beradi.

Aholining juda katta qismi bu loyihada ishtirok etdi. Odamlar loyiha ijrosini, kamchiliklari bartaraf etilganini amalda ko'rdi, ishonch hosil qildi. Manfaatini his qilgan jamiyat, tabiiyki barcha imkoniyatlarini ishga sola boshladi. Ovoz yig'ishdagi talato'plar ham loyiha jiddiy raqobatga sabab bo'lganini isbotlab turibdi.